



O`ZBEK VA INGLIZ FRAZEOLOGIK BIRLIKLARIDA RAQAMLARNING QO`LLANILISHI

Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna

PhD, Farg`ona davlat universiteti

Mirzayeva Xusnidaxon Ravshanjon qizi

Magistrant, Farg`ona davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10117806>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-noyabr 2023 yil

Ma`qullandi: 11-noyabr 2023 yil

Nashr qilindi: 13-noyabr 2023 yil

KEYWORDS

frazeologik birliklar, turg'un so'z birikmalari, frazeologik ma'no, tartib raqamlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tilidagi frazeologik birliklarda raqamlarning qo'llanilishi misollar bilan qiyosiy taxlil qilingan. Frazeologik birliklarni o'rganish jarayonida har ikki tilda ham raqamlardan keng foydalanilganligi va ular turli tillarda o'z ma'nosiga ega ekanligi, ularning tilshunoslikda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Frazeologik birliklar har bir tilning rivojlanishi va uning tarixida muhim rol o'ynaydi. Frazeologiyaning tilshunoslikda mustaqil fan sifatida rivojlanishi mashhur tilshunos olimlar V.Vinogradov, N.N.Amosova, A.V.Kunin, N.M.Shanskiy, T.N.Fedulonkova ismlari bilan bog'liq. Shuningdek, o'zbek tilshunoslaridan Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.Mamatov, N.O'rmonovalar o'zbek frazeologik birliklarini o'rganishga katta hissa qo'shganlar. Xususan, Sh.Rahmatullayev o'zining "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'atida"da frazeologik birliklarga quyidagicha ta'rif beradi: "Fraza- lingvistik birlik sifatida kamida ikkita mustaqil so'zlar(leksemalar)dan iborat bo'lishi kerak va frazeologik birlik esa so'z birikmasi yoki ikki va undan ortiq, bir-biri bilan ma'no jihatdan bog'langan va ko'chma ma'noda qo'llaniladigan so'zlardan iborat gapga teng birikma"¹. Demak, frazeologik birliklar nutqning badiiy-tasviriy vositalari sifatida fikrning oddiy bayonidan ko'ra uslubiy maqsadlarni ifodalashda ham ishtirok etadi.

Frazeologik birliklar va erkin birikmalar tuzilishi jihatidan ham semantik jihatidan ham alohida-alohida birliklardir. Frazeologik birliklar yaxlit holda yoki qisman ko'chma ma'noga ega so'z birikmasi yoki gap tuzilishiga ega birliklar hisoblanadi. Turg'unlik frazeologik birliklarga xos xususiyat hisoblanadi. Erkin birikmalar va so'zlar esa morfemalardan tashkil topgan bo'ladi. So'zlar va erkin birikmalar lug'aviy ma'noda ham ko'chma ma'noda ham qo'llanilish xususiyatiga ega bo'ladi, ammo frazeologik birliklar faqatgina ko'chma ma'noda qo'llaniladi. So'zlar va frazeologik birliklar tilning turli xil sathlariga tegishli. Frazeologizmlar tilning frazeologik sathiga tegishli bo'lsa, so'zlar esa leksik sath birligiga tegishlidir. Bu ikkala sathning farq qiluvchi jihatlari bilan bir qatorda, umumiy bo'lgan ko'p ma'nolilik, omonimlik va antonimlik xususiyatlari ham mavjud

O'zbek va ingliz frazeologik birliklarida raqamlarning qo'llanilishining qiyosiy tahlili

¹ Sh.Rahmatullayev,1978

Frazeologik birliklarda sonlar ham muhim o`rin tutadi. Xususan, o`zbek va ingliz tilidagi frazeologik birliklarda raqamlarning qo`llanilishini solishtirganda, raqamlar har bir millatning dini, turmush tarziga bog`liq holda qo`llanilganiga guvoh bo`lamiz. Masalan, ingliz tilidagi “be on cloud **nine**” idiomasi o`zbek tilida “to`qqizinchi osmonda uchmoq” yoki “to`qqizinchi osmonda his qilmoq” ya`ni “juda xursand, mamnun, baxtli” ma`nosini anglatadi. Ushbu frazadan bizga ma`lum bo`ladiki, **to`qqiz** raqami ingliz tilida sexrli raqamdir. Bu idiomani o`zbek tilidagi varianti “yettinchi osmonda uchmoq” bo`lib,

Sh.Rahmatullayevning “O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati”da “xursand, juda mamnun” ma`nosini anglatadi. Berilgan frazalardan ma`lumki, o`zbek xalqi “to`qqiz” raqamini emas “yetti” raqamini mo`jizaviy deb hisoblaydilar.

Ingliz tilida ko`plab raqamlardan: ikki, to`rt, olti, sakkiz, yuz- frazeologik birliklarda keng qo`llaniladi. Masalan, “between **two** fires” or “fall between **two** stools”- bu fraza biror insonning qaror qabul qilishga qiynalib umidsiz holatini anglatadi:

“When my dad joined my mom in critising me, I felt like I was caught **between two fires**” - “Oyim meni tanqid qilayotganda dadamning bu fikrga qo`shilishi meni **ikki o`t orasida** qoldirdi”. “Ikki o`t orasida (yoki o`rtasida) qolmoq” iborasi o`zbek tilida- “birini deb boshqasidan kechib bo`lmaydigan, kechish qiyin holatga tushmoq ma`nosini anglatadi:

“Bobur o`zini **ikki o`t orasida qolganday** sezdi. Beklaru navkarlarning ko`ngliga qaray desa, bu yoqda raiyat ocharchilikdan o`lyapti. Ra`iyatni ochlik changalidan qutqazay desa, beklar, navkarlar dod soldi”².

Ingliz va o`zbek frazeologik birliklarida **to`rt** raqamidan ham unumli foydalanilgan. “Within these **four** walls” – “to`rt devor orasida” bu fraza biror ma`lumotni sir qolishini hojlaganimizda qo`llaniladi:

“Don`t let this go further than these four walls (don`t tell anyone else who is not in the room now)”- bu gapni hech kimga aytmang, honadan tashqariga chiqmasin!

O`zbek tilida **to`rt** raqami bilan bog`liq iboralardan o`zbek adabiyotining mashhur namoyondalari o`z asarlarida keng foydalanganlar. Masalan, “**To`rt** tarafing qibla” – qayoqqa hojlasa ketaversin iborasi G`ulomning “Tirilgan murda” asarida qo`llanilgan:

“Eshikka chiqing, **to`rt** tarafingiz qibla. Balki o`sha boyvuchcha xotinga yo`liqib qolarsiz”³

“Ikksidan birini tanlang,-dedi Oyqiz qat`iyat bilan, -yo ketmon, yo **to`rt** tomoningiz qibla, boshingiz qayoqqa og`sa, o`sha tomonga jo`nang”⁴

Ingliz tilidagi frazeologik birliklarda **bir** va **ikki** raqamlaridan keng foydalaniladi va bu raqamlarning qo`llanilishi mantiq, haqiqat mavzulari bilan bog`liq. Sakkiz, o`n, yuz raqamlari ingliz frazeologik birliklarida ko`p qo`llanilmaydi, ammo o`zbek frazeologiyasida o`n va yuz raqamlari alohida o`ringa ega: “o`n(yuz) og`iz gapirmoq”- ko`p, juda ko`p gap yoki gapirmoq⁵: “Suhbatda yuz og`iz umumiy gapdan ko`ra, fikrni uyg`otadigan bir og`iz jonli so`z yaxshi”⁶

Xulosa

Til-xalqning ma`naviy boylik, qiyofa va birlik timsolidir. Har bir xalq boshqalaridan milliyliigi va o`ziga xos madaniyati bilan ajralib turadi. Frazeologik birliklarning raqamlar bilan qo`llanilishi

² P. Qodirov “Yulduzli tunlar”, 2019

³ G`. G`ulom “Tirilgan murda”, 1935

⁴ Sh. Rashidov “Bo`rondan kuchli”, 1953

⁵ Sh. Rahmatullayev O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati, 1978

⁶ P. Qodirov “Uch ildiz”

sohasida olib borilgan tadqiqotlar son tushunchasining ularda aks etgan madaniy va tipologik xususiyatlarini ochib beradi. Frazeologiyada son komponentining borligi bu til madaniyatining o'ziga xosligi bo'lib, frazalarda son komponenti taxminiy va noaniq ijtimoiy ko'rsatkichlarga ko'ra qo'llaniladi.

Ingliz tilida frazeologik birliklarda son komponenti alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy tilshunoslikda olimlar frazeologik kontekstda raqamlarning lingvistik va kognitiv jihatlariga alohida urg'u bermoqdalar. Ingliz va o'zbek frazeologik birliklarida raqamlardan foydalanish yuqorida keltirilgan misollar orqali tahlil qilindi va raqamlarning qo'llanilishi, ma'nosi har bir millatning madaniyati, urf-odatiga bog'liq. Bundan tashqari frazeologik birliklarda raqamlarning qo'llanilishi lingvokulturologik ma'no va ahamiyatga ega. Raqamlar har bir xalq, millatning adabiyotida, tili va madaniyatida muhim rol o'ynaydi.

References:

1. Kunin, A.V (1990) The course of the modern English phraseology, Moscow
2. Sh. Rahmatullayev (1978) O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati, Toshkent
3. Granger, S., & Meunier, F. (Eds.). (2008). Phraseology: An interdisciplinary perspective. John Benjamins Publishing.

INNOVATIVE
ACADEMY